

MAKTAB ONA TILI DARSlikLARIDA MATN HODISASINING TALQINI

Ataboyeva Gulgun Nurali qizi

Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

gulgunatoboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida “matn bilan o‘qitish texnologiyasi” orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Matnlar orqali berilayotgan topshiriqlar faqatgina o‘sha matnga tegishli bo‘lib qolmay, balki berilayotgan mavzuning umumiy mohiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat matn bilan ishlaydi, aksincha berilayotgan topshiriqlar orqali avval egallagan bilimlarini ham mustahkamlashga muvofiq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: metodika, til strukturasi, leksik tahlil, til uslublari, lug‘at, taqdimot, nutq, tafakkur, grammatik tahlil, matn

Abstract. This article discusses the possibility of forming and developing logical thinking skills in native language classes through the use of “text-based teaching technology”. The tasks given through texts are not only relevant to the text itself, but also serve to reveal the general essence of the topic being given. In this process, the student not only works with the text, but also consolidates previously acquired knowledge through the tasks given.

Keywords: methodology, language structure, lexical analysis, language styles, dictionary, presentation, speech, thinking, grammatical analysis, text

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и развитие навыков логического мышления на уроках родного языка посредством использования «текстовой технологии обучения». Задания, предлагаемые к текстам, не только связаны с самим текстом, но и служат для раскрытия общей сути изучаемой темы. При этом ученик не только работает с текстом, но и закрепляет ранее полученные знания посредством выполнения заданий.

Ключевые слова: методика, структура языка, лексический анализ, языковые стили, словарь, презентация, речь, мышление, грамматический анализ, текст

Kirish. Dunyoda globallashuv sharoitida ona tilini matn yarata olish darajasida o'qitish mazmunini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Ona tilida tuzilgan dasturlar ham, darsliklar ham o'quvchining matn yaratish malakasini shakllantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Koreya, Shveytsariya, Finlandiya, Rossiya va Xitoydagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida til va adabiyot fanlarini esse yoza bilish (matn yaratish) sari yo'naltirgan holda o'qitish vazifalari qo'yildi, ta'lim mazmuni va metodlariga aniqliklar kiritila boshlandi, o'qitish jarayoniga texnologiyalar, interaktiv usullarni tatbiq etishga kirishildi. O'quvchilarni matniy jihatdan savodxon qilib tarbiyalash, matniy savodxonlik asosida ularni hayotga mas'uliyatli tayyolash, o'ta murakkab, ayni paytda kuchli zaruriyat hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar, shubhasiz, ona tili ta'limi zimmasiga yuklanadi. Quyida mazkur ilmiy metodik muammoning yechimiga qaratilgan ona tili darsliklaridan o'rin olgan matn tuzilishini o'rganishga doir qoidalar xususida so'z yuritamiz.

Asosiy qism. Matn yaratish nutqiy vazifalardan kelib chiqiladi. Matnlar bilan ishlashda asosan interfaol metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Bu esa o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu

jarayonda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, kerakli ko'nikma va malakalarni egallashlariga, albatta, nutq o'stirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ona tili darslarida **“matn bilan o'qitish texnologiyasi”** orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirib borish mumkin. Matnlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin. **Matnning leksik tahlili.** Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarga yangi so'zlar va ularning ma'nolari bilan ishlash imkoniyati yaratiladi. So'z boyligini oshirish matn ichidagi notanish so'zlarni aniqlab, ularning lug'aviy ma'nosi tushuntiriladi va matndagi ishlatilish konteksti muhokama qilinadi. Boshlang'ich sinflarda qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

- 1) berilgan soʻzlarga antonim topish;
- 2) koʻrsatilgan matndan qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni topish;
- 3) berilgan matndagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni ularning antonimi bilan almashtirish;
- 4) antonimik maʼnoga ega boʻlgan gaplarni yozib tugatish;
- 5) keltirilgan antonim juftlik ishtirokida gap tuzish. Berilgan soʻzlarga antonim tanlashga doir mashqlar qoʻyilgan maqsadga bogʻliq ravishda bolalarga turli koʻrinishda taklif qilinishi mumkin. Boshida faqat antonim topish kerak boʻlgan soʻzlar emas, balki shu antonimlarning oʻzi ham alohida roʻyxat qilib beriladi. Oʻquvchilarning vazifasi bu roʻyxatdan kerakli soʻzlarni tanlab olishdan iborat boʻladi.

Til strukturasi va grammatik tahlil. Matn ustida ishlash oʻquvchilarga grammatik qoidalarini amalda qoʻllashni oʻrgatadi: Soʻz turkumlari bilan ishlash matndagi soʻzlarni soʻz turkumlariga ajratish va ularning qanday vazifalarni bajarishini tushunish imkonini beradi. Misol uchun, sifatlar va feʼllarni topish, ularning gapda qanday oʻrin tutganini tahlil qilish. Murakkab gaplar tahlili: Matnda murakkab gaplarning tuzilishini oʻrganish va ularning qanday qismlardan tashkil topganini tahlil qilish, bogʻlangan va qoʻshma gaplarni farqlash.

Matnning stilistik tahlil. Oʻquvchilar matndagi uslubiy vositalarni oʻrganadilar: Badiiy vositalar bilan tanishish: Matnda ishlatilgan badiiy tasviriy vositalar (epitet, metafora, personifikatsiya, tashbeh va boshqalar) tahlil qilinadi. Ularning matnda qanday rol oʻynashi va qaysi maqsadda ishlatilgani muhokama qilinadi. til uslublarini tahlil qilish: Matn uslubiy jihatdan qanday yozilganini, masalan, badiiy yoki publitsistik uslubda yozilganini aniqlash. Bu oʻquvchilarga turli til uslublari bilan tanishish imkonini beradi. **10-sinf ona tili darsligida “ADASHGAN NOMLAR”** matnida quyidagi topshiriqlar berilgan. Ilmiy matn asosida badiiy tasvir matni yarating.

Bajarish tartibi:

- 1) sarlavhaga badiiy tus bering;
- 2) almashtirish, qoʻshish lozim boʻlgan soʻzlarni aniqlang;

- 3) hissiy munosabat ifodalangan o‘rinlarni belgilang;
- 4) tasvirlar ekansiz, voqeani baholang, hissiy munosabatingizni bayon eting.

Islandiya ingliz tilida „muz o‘lka“, Grenlandiya esa „yashil o‘lka“ degan ma’noni bildiradi. Qizig‘i shundaki, Islandiyada iqlim yumshoq, qishda harorat kamdan kam holatda 0 gradusga tushadi. Grenlandiya orolining 86 foizi esa muz bilan qoplangan.

Taqdimot va loyiha ishlari. Matn asosida loyiha ishlari yoki taqdimotlar tayyorlash: Guruhda loyiha tayyorlash: O‘quvchilarni guruhlariga ajratib, matn mazmuni asosida loyiha tayyorlash taklif etiladi. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Matnni taqdim qilish: O‘quvchilar matnni qismlarga bo‘lib, har bir qismi bo‘yicha taqdimot qilishadi, bu ularga o‘z fikrlarini ifodalash va jamoat oldida gapirishni o‘rganishga yordam beradi. Matn ustida ishlashning bu usullari orqali o‘quvchilar 9-sinfda ona tili darslarida nafaqat tilning leksik va grammatik jihatlarini, balki matnning umumiy mazmuni va uslubiy xususiyatlarini chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Lug‘atlar orqali. Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosi qisqacha tushuntiriladi. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi. Bu holatda esa lug‘atlar juda foydali qo‘llanmadir.

Xulosa. Ona tili darslarida matn ustida ishlash o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ona tili darslarida matnning leksik, grammatik, stilistik va kompozitsion jihatlarini ustida ishlash orqali o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, gap tuzilishi va grammatik qoidalarni mustahkamlaydi, hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Matn ustida ishlash usullari o‘quvchilarning til bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova K. va b. Matn tuzilishiga oid qoidalar. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Ona tili o'qitish metodikasi., A.G'ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimova, T-2020.
3. Ona tili o'qitish metodikasi., X.Xaitov, B-2022.
4. Ziyadova T. O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2019.